

UDK 37.06.P17

**XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING
MATEMATIK SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH****Shaxmuradova Diljaxon Almardanovna,**

ATMU Pedagogika kafedrasi dotsenti

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

diljahonshaxmurodova@gmail.com**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18798631>

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish imkoniyati ochib berilgan. Pisa xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirish va hayotiy masalalarni yechish orqali matematikani anglash haqida so'z boradi. PIRLS va TIMSS xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayonida qo'llashda erishiladigan yutuqlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, xalqaro baholash dasturi, matn ustida ishlash, savodxonlik darajasi, PIRLS, TIMSS.

Аннотация. В статье рассматривается возможность использования международных программ оценки для повышения методической подготовки будущего учителя начальной школы. На основе международной программы оценки PISA обсуждается развитие математической грамотности учащихся и понимания математики посредством решения реальных задач. Анализируются достижения, полученные при использовании международных программ оценки PIRLS и TIMSS в образовательном процессе.

Ключевые слова: будущий учитель начальной школы, международная программа оценки, работа с текстом, уровень грамотности, PIRLS, TIMSS.

Abstract. The article reveals the possibility of using international assessment programs to improve the methodological preparation of a future primary school teacher. Based on the Pisa international assessment program, it is discussed about the development of students' mathematical literacy and understanding of mathematics through solving real-life problems. The achievements achieved in the use of PIRLS and TIMSS international assessment programs in the educational process are analyzed.

Keywords: future primary school teacher, international assessment program, work on the text, literacy level, PIRLS, TIMSS.

Kirish. Hozirgi kunda mamlakatimizda innovatsion ta'lim tizimi keskin rivojlanib bormoqda. Shunday ekan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodiy faoliyatini har tomonlama qo'llabquvvatlash, ularning bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish, shu bilan birgalikda innovatsion ta'lim tizimini ilg'or xorijiy mamlakatlar qatoriga yetkazish, yoshlar bilimini xorijiy mezonlar, xorijiy tajriba hamda xorijiy talablar asosida baholash, shu yo'lda xorijiy mamlakatlarda mavjud tajribalar tizimni o'rganish, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimi bilan tanishish, ularda mavjud bo'lgan ta'lim muassasalarining o'qitish jarayonini tashkil etishdagi faoliyati hamda turli fan sohalari bo'yicha pedagog kadrlari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ta'lim muammosi shundan iboratki, u qandaydir obyektiv baholashni talab qiladi va baholash obyektivligi har doim, hamma joyda muammo bo'lib qoladi. Bu jarayonda bevosita ishtirok etadigan o'qituvchi uchun ba'zi bir subyektivlikdan qochish

qiyin bo'lishi mumkin. Agar o'quvchilarning umumiy bilim darajasi tushsa, u holda bu tushgan bilim daraja orasida qolganlardan ham yaxshiroq bo'lganlar ular maksimal ball olishadi. Bunday tashqi baholash tizimining variantlaridan biri PIRLS bo'lib, o'quvchilarning ta'lim faoliyatini baholashning xalqaro dasturi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" [1] 2019-yil 29-apreldagi PF5712-son farmoniga ko'ra O'zbekistonning o'quvchilarni baholash xalqaro PISA dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish maqsadlari belgilangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8- dekabrda 997-son qaroriga muvofiq ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy-ilmii yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, hamkor loyihalarni amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish, xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish, ushbu sohada ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish vazifalari dolzarb masala sifatida qayd etilgan.

O'zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali takomillashgan davlatlar tajribalarini O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa mamlakatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatlariga ega bo'ladi. Tadqiqotning har to'rt yillik davriyligida uzluksiz ravishda qatnashish global miqyosda davlatimiz ta'lim tizimining samaradorligini kuzatib borish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O'zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy baholash tizimini joriy etish yordamida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda nazariy va amaliy manbalarni tahlil qilish asosida deskriptiv, qiyosiy hamda statistik-tahliliy metodlardan foydalanildi. Xususan, PISA, TIMSS va PIRLS xalqaro baholash dasturlari doirasidagi topshiriqlar mazmuni va baholash mezonlari o'rganilib, ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini shakllantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, olingan natijalar pedagogik kuzatuv va umumlashtirish usullari orqali ilmiy jihatdan asoslandi.

Tahlillar va natijalar. TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

PIRLS – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson

tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyatidir [8].

TALIS – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish;

Ushbu loyihalar o'quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalar rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi o'quvchi-yoshlarining savodxonlik darajalari ilk bor sinab ko'riladi xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba sinovlar o'tkazish, o'quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o'quvchilarda maxsus ko'nikmalarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Deyarli har bir insonga hayoti davomida matematika kerak bo'ladi. Shuning uchun ham PISA xalqaro baholash dasturida ham aynan matematik savodxonlik katta e'tibor qaratilmoqda.

PISA. Asosiy yo'nalishlar O'qish savodxonligi: Insonning matn shaklida berilgan ma'lumotlarni tushina olish va ularga reaksiya bera olish ko'nikmasi, jamiyat hayotida faol qatnashish jarayonida o'qigan ma'lumotlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalana olish, bilim va imkoniyatlarini oshira olish layoqati. Bu yerda, o'qish savodxonligi tushunchasi keng ma'no kasb etadi. Bu yo'nalish maqsadi o'quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo'llanmalar, geografik kartalar kabi rangba-rang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo'ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o'qiganlari haqida o'z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi.

O'quvchilar bilimni baholashda PIRLS tadqiqotlarining topshiriqlaridan foydalanish ("Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanmasi) va unda belgilangan baholash mezonlariga amal qilish ularda: – o'qish savodxonligining maqsadiga erishishda badiiy tajriba orttirish va axborot olish va undan foydalanish; – ko'p qirrali, murakkab vazifalarni amalga oshirishga o'rganish; – har bir muammo xususida chuqur fikrlash va o'z bilimni oshirib borishni boshqara olish; – o'z tengdoshlari, o'qituvchilar va mutaxassislar bilan chuqur mulohazani talab etuvchi muhim vazifalarni bajarishda hamkorlik qila olish; – qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish va yangi fikrlar yaratishda texnologiyalardan foydalana olish kabi kompetensiyalarni shakllanishiga ko'maklashadi. Matnni tushunish jarayonida quyidagilarga erishiladi:

1. Matnni o'qish asosida diqqatni jamlash va aniq ma'lumotlarni to'plash.
2. Xulosa chiqara olish.
3. G'oya va axborotlarni tahlil qilish va uyg'unlashtirish.
4. Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish kabilar.

Xulosa. Yosh avlod bilimini baholashda xalqaro baholash dasturlarini amaliyotga qo'llash bilan birga milliy baholash tizimini yanada takomillashtirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xalqaro dasturlarda ishtirok etish yosh avlodning intellektual salohiyatini qay darajada rivojlanayotganini aniqlash, shu orqali natija va samaradorlikning yangi yo'nalishlarini belgilab olishga imkoniyat yaratsa milliy baholash tizimining yanada takomillashtirish xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash bilan birga ularning kreativligini, kompetentligini va o'z navbatida ta'lim sifatini yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Zero, ayni davr ta'limi va global taraqqiyot bilimlar universalligini ham talab etmoqda. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini umume'tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq tubdan yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.
3. Jalolova F.M (2021) Pisa xalqaro baholash dasturi asosida o'qiyuvchida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish. "Экономика и социум" №4(83).
4. Matkarimov M.A. (2020) "PISA" xalqaro o'qituvchilarining savodxonligini baholash tadqiqotlarining rivojlantirish bosqichlari, maqsad va vazifalari. "Zamonaviy ta'lim" jurnali, №8(93)
5. O'quvchilarni matematik savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan topshiriqlar to'plami. Toshkent-2019. 45 b.
6. Jennifer Anne Evans Gender, Self-Efficacy, and Mathematics Achievement: An Analysis of Fourth Grade and Eighth Grade TIMSS Data from the United States. Lesley University School of Education 2015 32-33-p.
7. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Minnich, C.A., Stanco, G.M., Arora, A., Centurino, V.A.S., & Castle, C.E. (Eds.) TIMSS 2011 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Mathematics and Science, Volumes 1 and 2. - Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2012. - 1088 p.
8. Hutchison, D., Schagen, I. Comparisons between PISA and TIMSS -Are we the man with two watches? / Loveless, T. (Eds.) // Lessons Learned - What international assessments tell us about math achievement. - Washington, D.C.: Brookings Institute Press, 2007. - P. 227-261.
9. Raxmatov M., Zaripov B. Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida. – T: "Zamin nashr", Toshkent, 2021.
10. "Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash" metodik qo'llanmasi, T. 2019-y.
11. Almardanovna, S. D., & Shokirovna, A. M. (2025). The Effectiveness of Increasing Students' Cognitive Activity in Primary Education. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 39, 66-70.